



PEDAGOGIK MULOQOT MADANIYATINING O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Salayev Solijon Zokirjon o'g'li

Urganch Ranch universiteti tyutori

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada pedagogik muloqot madaniyati hamda uning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: Pedagog, o'quvchi, pedagogik madaniyat, muloqot, o'zlashtirish, mahorat, islohot.

Yurtimiz ma'naviy va madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilganligidir. Ma'lumki, uzluksiz ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalar, yangi qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ko'rsatilgan muammolarni hal etish o'qituvchipedagog tomonidan hal qilinadi. Avvalo, o'qituvchidan fani doirasida ma'lumotlarni, axborotlarni fan yangiliklarini o'zlashtirishda va ta'lim oluvchilarda yetkazadi. Bu albatta muloqot orqali hal etiladi. Buning uchun o'qituvchi pedagogik mahorat, pedagogik texnika, pedagogik madaniyat kabi qirralarini mukammal o'zlashtirishi bilan birga pedagogik muloqot va uning zamonaviy usullaridan to'liq xabardor bo'lishi talab etiladi. Shuni unutmaslik kerakki, pedagogik faollik pedagogik ijodkorli, pedagogik natijaviylik, pedagogik muloqot bilan chambarchas bog'langan. Shu bois pedagogik muloqot usullari zamon talablari, ta'lim-tarbiya ehtiyojlari pedagogik vazifa xususiyatlariga qarab takomillashtirib, mukammallashtirib boriladi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalaridagi muvaffaqiyat faqatgina dars usullari yoki o'quv-materiallari bilan emas, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot madaniyati darajasi bilan ham bevosita bog'liq. Pedagogik jarayon asosan muloqot orqali amalga oshadi va shu sababli muloqot madaniyati — ta'limichining kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sanaladi. O'qituvchi o'zining fikrini, bilimini, qadriyatlarini o'quvchilarga yetkazishda muloqotning madaniyatli shaklini qo'llasa, o'quvchi bilan ishonchli, ochiq va



samarali munosabat o'rnatadi. Shu munosabat bilan, muloqot madaniyati tarbiyaviy ta'lim jarayonining mazmunini boyitadi, motivatsiyani oshiradi va o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik holatini yaxshilaydi. Maqolaning maqsadi – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqot madaniyatining nazariy asoslarini tahlil qilish, uning shakllanishini ta'minlovchi shart-sharoitlarni aniqlash hamda amaliy takliflar berishdan iborat.

Muloqot kishilarning birgalikdagi faoliyatining muxim shartlaridan biridir. Muloqot – bu kishilar o'rtasidagi o'zaro axborot almashish jarayonidir. Insonning tabiiy ehtiyojidir, chunki odamlar bir-biri bilan gaplashmasdan, axborot almashmasdan yashay olmaydilar. Muloqot tufayli kishilar bir birini tushunadilar, mehnat jarayonida xamkorlik, hamjixatlikka erishadilar, o'zaro fikr va tajriba almashadilar. Muloqot-odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihatida hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihatida munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi xarakati-nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat.

Muloqot orqali shaxsning xarakteri, irodaviy sifatlari shakllanishi haqida P.Y.Galperin, N.F.Dobro'nin, N.F.Talizinalar o'zlarining tadqiqotlarini o'tkazganlar. Shuningdek, Respublikamiz psixologlaridan M.G.Davletshin, E.G'oziyev, N.P.Anikeyeva, N.Safojev kabilar muloqot muammosini turli tomondan yoritib berganlar. Jumladan, professor E.G'oziyev "Muomala psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida muloqotning barcha qirralarini nazariy tomondan ochib berishga harakat qilgan. Professor M.G.Davletshin ham "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida muloqotni kishilarda qanday shakllanishi haqida fikrlar bildirgan.

Inson uchun bilim, ko'nikma va malakalarni qanchalik hayotiy zarurat bo'lsa, muloqot madaniyatini egallash ham shunchalik zarurdir. Chunki muloqot madaniyati kishining yetuklik, komillikka erishganlik belgisi bo'lib hisoblanadi. Muloqot madaniyatini egallash bo'lg'usi pedagoglar uchun ayniqsa axamiyatlidir. Chunki o'qituvchi faoliyati xamisha o'quvchilar bilan muloqotda kirishishni, o'zaro munosabatda bo'lishni taqozo



etadi. Muloqot jarayoni tufayli o'quvchilarga ta'lim beradi, pedagogik ta'sir ko'rsatadi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuksak e'tiqodni shakllantiradi, ijobiy axloqiy sifatlarni tarkib topdiradi. Lekin institutni tamomlab pedagogik faoliyatga yo'llanma olayotgan barcha talabalarni ham muloqot madaniyatini puxta egallagan, o'z fikrini boshqalarga erkin bayon qila oladigan, sof adabiy tilda so'zlaydigan mutaxassislar bo'lib yetishyapti, deb ayta olmayamiz. Shunday ekan, talabalarda muloqot madaniyatini, ayniqsa, pedagogik muloqotni tarbiyalash pedagogika institutlaridagi ta'lim tizimining ajralmas qismi, eng muxim vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Pedagogik muloqot o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi muloqot bo'lib, bu jarayonida o'zaro axborot almashish tufayli o'qituvchi o'quvchilarga bilim beradi, ularga tarbiyaviy tasir ko'rsatadi, o'zaro bir-birini tushunishga, idrok qilishga erishiladi. O'qituvchi pedagogik jarayonda o'quvchilar bilan xamkorlikni to'g'ri tashkillay olsa, ya'ni tarbiya maqsadi va vazifalariga mos keluvchi o'zaro ta'sir, o'zaro tushunishga yo'lga qo'ya olsagina ko'zlagan maqsadiga erishadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchi pedagogik muloqotga qo'yiladigan talablar, uning qonuniyatlarini puxta egallagan bo'lishi lozim.

Pedagogik muloqot - bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir

Rus psixologlaridan A.N.Leontyev o'zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli – avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: "Agar barcha katta avlod o'lib ketganda, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi". Darhaqiqat, avlodlararo muloqot tufayli har bir alohida jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar. O'quvchilarni muloqotga o'rgatish uchun ularga psixologik, pedagogik adabiyotlarni o'qishga tavsiya qilish, muloqot jarayonida yoshlar faoliyatini kuzatish, fikrlashini aniqlash va shu jarayonda psixologik o'yinlar, mashqlar, treninglardan



foydalanish muhimdir. O'quvchilar tafakkurini o'stirmay turib, ularning nutqini o'stirib bo'lmaydi. Og'zaki gapirish, bayon yoki insho yozishda o'quvchilarning reja tuzib olishlariga e'tibor berish kerak. Shuning uchun bolalarga yoshligidanoq ijobiy nutq odatlarini tarbiyalashga ahamiyat berish zarur. O'smirlar muloqotiga nisbatan o'spirinlar muloqoti ancha tarbiyalangan bo'ladi. Chunki ular muloqot madaniyati, muomala sirlarini egallagan bo'ladilar. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri-bu muloqotga bo'lgan ehtiyoj. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojimizni qondirishimiz lozim. Samarali muloqotni modellashtirish. O'qituvchilar talabalar uchun namuna sifatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Samarali muloqot qobiliyatlarini namoyish etish orqali o'qituvchilar ijobiy ta'lim muhitini yaratadilar va o'z o'quvchilariga o'rnak bo'lishadi. Modellashtirish orqali o'qituvchilar faol tinglash, aniq ifodalash va hurmatli o'zaro munosabatni namoyish etishlari mumkin, bu esa maktab jamoasida samarali muloqot madaniyatini rivojlantirishi mumkin.

Tajribali o'qituvchilar bilan o'zaro suhbatlardan ma'lum bo'ladiki, darsda talabalar jamoasi bilan muloqot usulini tanlash uchun o'qituvchi qaysidir ma'noda o'rganilayotgan yangi material uchun pedagogik metodlarni ham tanlashi talab qilinadi. Shu sababli, darsda yangi mavzuni o'rganishga tayyorgarlik ko'rilayotganda hamda tarbiyaviy ta'sir rejasini tuzayotganda muloqot tizimining o'ziga xos mazmunan boy jihatlarini, muloqot usullarini modellashtirish lozim [1:7]. Pedagogik faoliyatini endigina boshlayotgan yosh o'qituvchi talabalar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida, ayniqsa, o'zining kasbiy pedagogik xatti-harakatlarida o'ziga xos psixologik to'siqlarga duch kelishi, talabalar bilan muloqotda ziddiyatlar paydo bo'lishi mumkinligini bilishi va bunga har tomonlama tayyorgarlik ko'rishi, chuqur pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilar ko'pincha "yomon o'qituvchi" deganda o'z fanini yaxshi bilmaydigan yoki qattiqqol o'qituvchini emas, balki o'quvchilar bilan yaxshi munosabat o'rnatolmaydigan, muloqotda qo'pol, o'quvchi shaxsini hurmat qilmaydigan o'qituvchilarni tushunadilar. O'quvchilarning o'qituvchilar bilan o'zaro muloqotdan qoniqmasliklariga asosiy sabab o'qituvchi tomonidan o'quvchi shaxsini yetarli tushunmasligi, uni hurmat qilmasligi, har bir o'quvchini alohida, o'ziga xos shaxs deb emas,



balki bo'ysunuvchi, itoat etishi shart bo'lgan shaxs deb qabul qilishlarida deb o'ylaymiz. O'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi muloqotning samarali bo'lishi avvalo muloqot odobiga, o'zaro hurmat, bir-birini tushunishga intilishiga bog'liqdir. Chunki bu shartlar muloqotning muvaffaqiyatli, samarali kechishini ta'minlaydi, uning asosiy vazifalarini to'g'ri amalga oshirishga yordam beradi. Muloqot odobi o'qituvchiga o'z fikrini o'quvchilar qanday qabul qilayotganini kuzatib borish, ularning yuz ifodalaridagi o'zgarishlarga e'tibor qilish, muloqotning borishiga o'z vaqtida tegishli o'zgarishlar kiritish imkonini ham beradi.

Pedagogik muloqotning samarali bo'lishi o'qituvchi nutqiga, so'zlarni to'g'ri tanlashi, ularni ifodali bayon etishi, jummalarning mantiqiy jixatdan izchil bo'lishiga xam bog'liqdir. Pedagog tili o'quvchilarning his-tuyg'ularini uyg'otadigan, ularda mavzu mazmuniga qiziqish uyg'otadigan, diqqat e'tiborni tortadigan bo'lsagina u tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi. Shunday ekan pedagogning nutqi ta'sirli, jozibali, jarangdor, badiiy bo'yoqlarga boy bo'lishi lozim.

Aytish mumkinki, o'qituvchi muloqot jarayonida quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olish lozim:

- o'qituvchilarning ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o'qituvchi va talabalar jamoasi bilan har kungi muloqot usulini vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor, an'anaviy muloqotning eng yaxshi xususiyatlarini o'zlashtirishi;

- muloqot asosida guruh jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, talabalar xatti-harakatining oldingi holati bilan tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish;

- o'z muloqot usuli natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish. Zarur so'z, ovozidagi yoqimli ohang, xulqatvorni vujudga keltirish;

- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shartsharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi, talabalar bilan o'zaro muomalaning



«ustoz-shogird» an'analariga xos boshlanishi va o'zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala ob'ektining diqqatini o'ziga jalb qilish;

Pedagogik muloqot usullarini tanlash, ulardan foydalanish qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va pedagogik muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish har bir bo'lajak o'qituvchi uchun muximdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // Ped.fanlari dokt. Ilmiy dar.uchun diss. – T., 2007
2. Kan-Kalik "O'qituvchi pedagogik aloqa to'g'risida: o'qituvchi uchun kitob" 1987 y.
3. Leontyev A.A. Pedagogik muloqot. M.; Nalchik, 1996 y.
4. Давлетшин М.Г., С.Тўтчиева "Умумкасбий психология". Ўқув қўлланма. Т. 2002.
5. E.G'oziyev "Muomala psixologiyasi" o'quv qo'llanma
6. Ochilova G. Pedagogik mahorat asoslari. Ma'ruzalar matni. – Toshkent, TDIU, 2012.